



KUTUBXONA NODAVLAT JAMOAT TASHKILOTINI TASHKIL QILISH TAJRIBASINING TAHLILI

Xudayberdiyeva Zebiniso Maxmado'stovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat birlashmalari tushunchalari va ularning vazifalari, kutubxona uyushmasi umumiy tushunchasi, konsorsiumning funksiyalari va vazifalari, jamoat birlashmasining xorij tajribasi, o'zbekistonda kutubxona jamoat birlashmasi yaratishning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jamoat birlashmasi, kutubxonalar, nodavlat - notijorat tashkilotlar, konsorsiumlar, xalqaro, respublika, mahalliy jamoat birlashmalari.

Jamoat birlashmasi — bu fuqarolarning qonunda belgilangan tartibdar ro'yxatdan o'tkazilgan birlashmasi bo'lib, o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosiy, iqtisodiyoy, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashlashishidir. O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalariga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyati, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. Jamoat birlashmalari xalq tashabbuskorligi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishining namoyon bo'lishi, demokratiya va huquqiy davlatning tarkibiy qismi hamda fuqarolik jamiyatiga xos turmush shaklidir. Agar ularning ta'sir doirasi mamlakat bo'yicha yoyiladigan bo'lsa, ular respublika tashkiloti (birlashmasi) deb yuritiladi.

Respublika jamoat tashkilotlari va birlashmalarini, odatda, O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi ro'yxatga oladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarni tashkil etishdan maqsad – jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali natijalarga erishishdir. [1]

Bizga ma'lumki bugungi kunda mamlakatimizda yildan yilga nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun ularga qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Buning natiysiada ularning soni yildan yilga o'sishi bilan birga va faoliyat ko'rsatish sohalari kengayib bormoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning faoliyati, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etilgan. Bundan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamoat birlashmalariga o‘z ustavlarida nazarda tutilgan vazifalarni bajarish imkonini kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo‘lgan huquqlarini ro`yobga chiqarish uchun huquqiy asos bo`lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan - Konstitutsiyaning XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan. O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida”gi Qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi, maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro‘yxatga olinishi kabi normalar o‘z ifodasini topgan. [2]

Jamoat birlashmalari o‘z a’zolarining ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o`zini-o`zi boshqarish, qonuniylik va oshkorlik tamoyillari asosida tuziladi va faoliyat ko`rsatadi. Jamoat birlashmalari o‘zlarining ustav faoliyatiga hamda tashkiliy-huquqiy maqomiga ko`ra uchta turga bo`linadi:

1. Xalqaro miqyosdagi jamoat birlashmasi
2. Respublika miqyosdagi jamoat birlashmasi
3. Mahalliy miqyosdagi jamoat birlashmasi

“Jamoat birlashmalari to`g`risida”gi Qonunga asosan jamoat birlashmasi kamida o`n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta’sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig`ilishini chaqirib, unda ustav qabul qilinadi va rahbar organ idoralari tuziladi.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo`yiladigan tartibda ishlab chiqarish va o`zga tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanadilar hamda faqat o‘z ustavidagi vazifalarni bajarish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan korxonalar xo`jalik hisobidagi tashkilotlarni tuzishga haqlidirlar.

Kutubxona uyushmasi – Kutubxonachilik ishi va sohasi bilan shug`ullanuvchi mutaxassislar (tashkilotlarning)ning muayyan maqsadlarini birgalikda amalga oshirish uchun uyushishi. Kutubxona jamoat birlashmasi bu – foydalanuvchilarning eng so‘nggi axborot resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va shakllantirish maqsadida makon-vaqt kontinuumida ijtimoiy ahamiyatga ega hujjatlarni to‘playdigan, saqlaydigan va tarqatuvchi integratsiyalashgan ijtimoiy muassasadir. Kutubxonalar imkoniyatini birlashtirish ularning individual imkoniyati va faoliyatlariga nisbatan ancha ko‘p narsalarni berishi mumkin. Odatda, konsorsiumlar o‘xhash maqsad va vazifalarga ega

bo‘lgan tashkilotlar orasida strategik hamkorlar sifatida shakllanadi va umumiy zaxiralardan birgalikda foydalanishga harakat qiladilar.

Konsorsium ma’lum ishlarini birgalikda bajarilishiga, uning natijasidan samarali foydalanishga, birgalikda malakali tekshiruvlarni amalga oshirishga, har xil zaxiralardan birgalikda foydalanishga imkon beradi. Bu esa quyidagilarda o‘z ifodasini topadi.

Bir xil amallar takrorlanishini oldini olish uchun umumiy harakat, dastur va xizmatlarni yaxshi tashkil qilish;

- Hamkorlikda tekshiruvlar o‘tkazish va uning natijasidan birgalikda foydalanishga imkon berib, lokal kutubxona boshqaruvini yaxshilash. Bu boshqa holatlar bajarilmasligi yoki vaqtning qisqa oralig‘i uchun zarur bo‘lishligi mumkin;

- Kutubxonalararo kelishuvlar, o‘zaro qarz berib turishlarni yo‘lga qo‘yish va yig‘ma elektron katalog orqali kutubxona zaxiralaridan birgalikda foydalanishini yaxshilash.

Elektron axborotlarni sotib olishni va umumiy axborot zaxiralari bilan kutubxona boshqaruvini yaxshilash. Konsorsium o‘z a’zolarini sotib olish imkoniyatlarini yetarli darajada oshirib yuborishi mumkin. Bu quyidagilarda ifodalanadi:

- Xarid qilinadigan axborot birligi narxini pasaytirib, shu narxga yoki kamroq narxga ko‘p miqdordagi axborot (misol uchun, ko‘p miqdordagi jurnallar) bilan ta’minlanish imkoniyati;

- Kutubxonaning o‘z kuchi bilan erishishiga nisbatan taqqoslaganda elektron axborotlarni standart litsenziyalashning qulay sharoitlari;

- Konsorsium a’zolarining milliy axborot zaxiralariga xalqaro kirishni kengaytirish;

- Bosma va elektron kutubxona kolleksiya (ma’lumot bazasi) yaratish va ulardan birgalikda foydalanish uchun qulay boshqaruv;

- Ancha nozik narx-navo siyosati imkoniyatining kengayishi;

- Vositachilarsiz, nashriyotlar bilan bevosa ishlash hisobiga xarajatlarni kamaytirish;

- Alohida kutubxonalar olishi mumkin bo‘lmagan maslahat va yo‘riqnomalar olishning qonuniy shakl va vositalariga kirish imkoniyatini ta’minlashi. [3]

Butun jahonda qancha konsorsium bo‘lsa, qariyb shuncha konsorsiumlar yaratish modellari mavjuddir. Har bir konsorsium o‘z viloyati yoki mamlakati muhitida hech qanday o‘ziga xos tashqi tuzilmalar ta’sirisiz shakllangan. Kutubxonachilar o‘z konsorsiumlari tuzilishini o‘zgartirish uchun o‘zga konsorsiumlar ega bo‘lgan tajribalardan foydalandilar, ammo birorta ham konsorsium boshqa mamlakatlardan aynan ko‘chirilmagan. Bundan tashqari, agarda konsorsiumlar o‘zlari yaratilgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘ziga xoslik tomonlarini hisobga olgan bo‘lsa, ular

anchagina muvaffaqiyatlarga egadirlar. Bu hujjat lokal konsorsiumlarni shakllantirishda hisobga olinishi mumkin bo‘lgan bir qancha omillarni oydinlashtirish uchun Qo‘shma Shtatlar va Yevropaning bir nechta konsorsiumlarining tuzilishini ta’riflab beradi. Tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda butun jahonda 250 taga yaqin konsorsium mavjud.

Ammo konsorsium o‘zi nima degani haqidagi kelishilgan standart yoki yo‘riqnomalar mavjud emas. Bu yerda asosan, konsorsiumlarni yaratish, harakatlantirish va boshqarish tajribalarini hisobga olish hamda ular muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni tushunib yetish muhimdir.

Quyida keltiriladigan konsorsiumlar muvaffaqiyatli ishlab turibdi, ammo bir-biriga o‘xshaydiganlari yo‘q. Ularning ayrimlari tuzilishi bo‘yicha yuqori darajada bo‘lsa, boshqalari esa tashkiliy jihatdan ancha erkinliklarga ega. Ayrimlari moliyaviy ta’milangan bo‘lsa, boshqalari esa iqtisodiy jihatdan ancha noqulay sharoitdadir. Ayrimlari uzoq yillik tajribaga ega bo‘lsa, boshqalari esa endigina tashkil topgan. Unda ularning umumiyligi nimada? Ular konsorsiumning muvaffaqiyatiga ishonadigan kuchli professional shaxslar shtatiga (full time bo‘lishi shart emas) egadirlar. Bundan tashqari, ular a’zolarining kuchli qo’llab-quvvatlashiga va harakatlarining aniq rejasiga egadirlar. Ularning barchasi kutubxona ishlari bo‘yicha xalqaro kooperatsiyada ishtiroy etadilar va chet mamlakatlar konsorsiumlarining tajribalarini faol ravishda o‘rganadilar.

Mamlakatimizda fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarida elektron axborot resurslarini rivojlantirish va qo’llashda axborot-kutubxona muassasalari, o’quv yurtlari, arxivlar, muzey va boshqa tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini kengaytirish, kutubxona ishini yanada yuqori bosqichga ko’tarish, mavjud muammolarni bartaraf etish, internet va elektron ma’lumotlar bazalari imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida o’n beshinchi bor o’tkazilayotgan xalqaro anjumanda Qoraqalpog’iston Respublikasi hamda respublikamizning barcha viloyatlari axborot-kutubxona markazlari rahbarlari, umuman, sohaning 400 nafardan ortiq mutaxassislari, shuningdek, o’nga yaqin xorijiy mamlakatlardan 30 nafar ekspert ishtiroy etmoqda.

Ma’lumki keyingi yillarda mamlakatimizda axborot-kutubxona sohasi rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan axborot-kutubxona faoliyati bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlarda aholining barcha qatlamini kutubxona xizmati bilan qamrab olish, shuningdek, olis hududlarda yashovchi aholi uchun ko’chma kutubxonalar tashkil etish, hujjatlarni elektron yetkazib berish, axborot-kutubxona resurslaridan masofadan foydalanishni rivojlantirish, adabiyotlarning elektron nusxalarini shakllantirish, yakka, guruhlar o’rtasida hamda ommaviy kitobxonlik tizimini takomillashtirish, aholining kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish, axborot-kutubxona muassasalari va soha mutaxassislari nufuzini oshirish masalalari o’rin olgan.

Ayni kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufida 14 ta viloyat, 186 ta tuman, shahar axborot-kutubxona markazlari faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, turli vazirlik va idoralar tizimida qariyb 90 million nusxaga yaqin kitob fondiga ega 14 mingdan ziyod axborot-kutubxona muassasalari mavjud. Umuman, mazkur yo'nalihsida 25 ming nafarga yaqin kutubxonachi mutaxassislar kitobxonlarga xizmat ko'rsatib keladi.

– Ekspert va mutaxassislarning ma'ruzalaridan faoliyatimizga oid juda ko'p narsalarni o'rgandik, – deydi Z.M.Bobur nomli Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi ilmiy metodika xizmati rahbari Zamiraxon Shaxobiddinova. – Ayniqsa, ilmiy-metodik xizmatni tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar, ilg'or ish uslublari haqidagi ma'lumotlar bizda katta qiziqish uyg'otdi.

Ma'ruzalar yuzasidan savol-javoblar bo'ldi, ishtirokchilar tomonidan mazkur yo'nalihsdag'i ishlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha taklif, fikr va mulohazalar bildirildi. Kunning ikkinchi yarmida Nazarboev universiteti kutubxonasi bosh eksperti Petr Laponing "Universitet kutubxonasi mutaxassislarining joriy kompetentsiyalari va ularni shakllantirish", Rossiyaning "ID LOGIC" jamiyati bosh direktori Sergey Nikulinning "Kelajak tasviri: O'zbekiston Respublikasi madaniy resurslarini raqamlashtirish", Qиргизистон Respublikasi Kutubxonalar jamoat birlashmasi prezidenti Nurila Davletyarovaning "Hozirgi Markaziy Osiyo respublikalari hududida ommaviy kutubxonalar paydo bo'lishining tarixiy jihatlari", O'zbekiston Gyote instituti axborot-kutubxona bo'limi boshlig'i Gavhar Zokirovaning "Zamonaviy kutubxona tushunchasi", Rossiya Davlat kutubxonasi bosh kutubxonachisi Danil Ognevning "Rossiya kutubxona fondidagi O'zbekiston fondi", "EBSKO information services" kompaniyasi mintaqaviy vakili Aleksandr Ritovning "O'zbekiston universitetlarida elektron resurslarni samarali boshqarishda EBSKO dasturiy yechimlari" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi.

– O'zbekiston universitetlari axborot-resurs markazlarida elektron resurslarni samarali boshqarish bo'yicha EBSKO dasturini joriy etish taklif etilayotganligi ishimizni yanada yengillashtiradi, – deydi Buxoro davlat tibbiyot instituti axborot-resurs markazi direktori Dilshoda Alieva. – Faoliyatimizga ilg'or, innovatsion ish uslublarini joriy etish ishimizning unumi va samaradorligini oshiradi, eng asosiysi, kutubxonadan foydalanuvchilarga qator qulayliklar yaratish bilan birga, ularning safini kengaytiradi.

Xalqaro konferentsiyaning birinchi ish kuni yakunida O'zbekiston kutubxonalar assotsiatsiyasining ta'sis yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda assotsiatsiyani tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli hujjatlar tasdiqlandi.

O‘zbekistonda 12 mingga yaqin kutubxonalar, jumladan, oliy o‘quv yurtlari, kollejlar, litseylar, maktablar kutubxonalari, axborot-kutubxona markazlari (viloyat xalq kutubxonalari), ixtisoslashtirilgan kutubxonalar,

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi (O‘zbekiston Milliy kutubxonasi) va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona infratuzilmasi

Idora	Etakchi kutubxona	Kutubxonalar soni tizimda
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi	NBU ularni. Alisher Navoiy	14 ta viloyat ommaviy kutubxonasi (axborot kutubxona markazlari) + 186 ta viloyat ommaviy kutubxonasi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi	Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasi	Fanlar akademiyasi ilmiytadqiqot institutining 34 kutubxonasi
sog`liqni saqlash vazirligi	Respublika ilmiy tibbiyot kutubxonasi	114 kutubxona (24 ilmiy tibbiyot, 79 tuman tibbiyoti, 11 universitet)
Xalq ta’limi vazirligi	Respublika bolalar kutubxonasi; O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Axborot texnologiyalari markazi	9942 ta maktab kutubxonasi
Madaniyat va sport vazirligi	Respublika ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar kutubxonasi	Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘rvuchilar uchun 14 ta kutubxona
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi	O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazi (ARM).	516 kutubxona (130 ta universitet, 201 ta kollej, 185 ta texnikum)
Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi	Toshkent davlat agrar universiteti	113 kutubxona
Mudofaa vazirligi	Mudofaa vazirligi kutubxonasi	113 kutubxona
Kasaba uyushmaları federatsiyasi kengashi	O‘zbekiston kasaba uyushmaları Federatsiyasi Kengashi O‘quv markazi kutubxonasi	132 kutubxona
Mahalla qo‘mitalari (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimlari) va boshqa vazirlilik va idoralarning kutubxonalari	Toshkent shahrining “Zamonaviy mahalla” loyihasi doirasida	500 dan ortiq kutubxonalar

XULOSA

Yagona uch bosqichli IBI O‘zbekistonga axborotning respublika, xorijiy va mintaqaviy manbalarini birlashtirish hamda axborotni to‘plash, to‘plash, qayta ishlash, qidirish va taqdim etishning yagona standartlarini hamda davlat organlari, iqtisodiyot, fan va jamiyat ta’limi sub’yektlari manfaatlarini ta’minlash imkonini beradi. va jamiyat. Tarqalgan tarmoq umumiyo‘t printerlar va ochiq umume’tirof etilgan standartlar

asosida elektron ma'lumotlar chizmalarini yoki ushbu chizmalar haqidagi ma'lumotlarni almashish uchun tashkilotning o'zaro ta'siri uchun to'liq texnologik va dasturiy muhit bo'lishi kerak. IBI va korporativ tarmoq bazasini yaratish turli bo'limlar kutubxonasiiga zarur boshqaruv va boshqa imtiyozlarni olish imkonini beradi: dam oluvchilarni hisobga olishni avtomatlashtirish, turli darajadagi ma'lumotlarni yig'ish va ko'rsatish jarayonlarini samarali boshqarish; barcha kutubxonalar va kitobxonalar uchun konsolidatsiyalangan EK ga ochiq onlayn kirish; kutubxonalarga o'zlarining mahalliy resurslarini shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etish; O'zmilliyybank, o'quv-kutubxona markazlari (viloyat ommaviy kutubxonalari) va turli bo'limlarning boshqa kutubxonalari o'rtaisdagi o'zaro hamkorlik va hamkorlik darajasini oshirish; ishtirokchi kutubxonalarning axborot-kutubxona resurslaridan ruxsat etilgan foydalanish; birlashma katalogining tayyor yozuvlaridan foydalanish, bu kataloglashtirishning murakkabligini kamaytirish imkonini beradi; onlayn kirish va bibliografni jismoniy qidirish imkoniyatini ta'minlash; ishlarning takrorlanishiga barham berish va kutubxonaning pul va shtat resurslarini tejash imkonini beruvchi resursning bir qismidan faol foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotla ro'yxati

1. wikipedia.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. M.A.Raxmatullayev, B.I.Ganiyeva."Jahon Axborot resurslari" Toshkent - 2019. 112-113
4. Shrayberg Ya.L. Tarmoq asosida yagona bilim makonini shakllantirish zamonaviy shakllanish va rivojlanish sharoitida 1. Lopatina N. V. Jamiyatning axborot infratuzilmasi: faoliyat va rivojlanishning zamonaviy muammolari axborot infratuzilmasi raqamli iqtisodiyot. "Qrim-2018" to'rtinchi xalqaro professional forumining yillik hisoboti // Ilmiy va texnik kutubxonalar. 2018. No 9. B. 3–75.
5. Volkova K. Yu., Shrayberg Ya. L. Davom etayotgan pandemiya sharoitida zamonaviy kutubxona-axborot infratuzilmasini rivojlanantirish tendentsiyalarining tahlili. (Xorijiy professional nashrlar materiallarini ko'rib chiqish) / K. Yu. Volkova,Ya. L. Shrayberg // O'sha yerda. 2020. No 10. 15–35-betlar.